Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	1254
Axmedov Akmal Yusufovich, Muhammadjonova Zarnigor Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinflarda matematik mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi metod va vositalar	1258
Eshonqulova Shafoat Ergashevna, Eshonqulov Sherzod Ummatovich, Samandarova Shahnoza	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1262
G. Sh. Tursunova	
Professional Needs of Deputy Directors at Secondary Schools	1266
Jambilov Nurillo Xabibilloevich	
Virtual reallik texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	1269
Mamadjonova Nozima Adhamovna	
AI or Corpus: Which is Better for Teaching English Vocabulary?	1272
Munajat Sultonova	
O'quvchilarni kasbga yo'nal tirishning pedagogik asoslari	1275
Raxmatullayeva Durdona Ravshanovna	
Ingliz tilida talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (sohaviy matnlarni o'qishni o'rgatish misolida)	1278
Shahobiddinova Dilnavoz Bahodir qizi	

Muhandislik grafikasi ta'limida raqamli transformatsiya: o'quv jarayonini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Cad, 3D modellash, VR) roli	1281
Tadjiyeva Feruza Muxtarovna	
Raqamli ta'lim ekotizimi: AKT asosida axborot-ta'lim muhiti va virtual laboratoriyalarni joriy etish tajribasi	1286
Toshkentov Akmal Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1290
Usmonova Gulnoza Abdurashid qizi	
Теория коммуникации как методологическая основа изучения трансформации языковой нормы в эпоху цифровых медиа.....	1294
Дилшодбеков Темур Дилшодбек угли	
Значение усвоения учебных материалов в процессе формирования биологических понятий у учащихся.....	1297
У. О. Шарибаева	
Specifics of Teaching Professional Terminology to Students of Economic Specialties	1301
Хамдамов Рамзбек Мадаминжонович	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	1306
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati.....	1311
Ma'murova Farangiz Ne'matovna	
Grafik organayzer tushunchasining mohiyati va uning turlari	1315
Nabijanov Yusufjon Inomiddin o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy metodik asoslari.....	1319
Xidirova Gavhar Babaqul qizi	
Pedagogik nizo va stress holatlarida o'qituvchining o'zini boshqarish malakasini shakllantirish	1322
Razzakova Dilnoza Akramovna	
Kompyuter grafikasi darslarida loyihaviy yondashuvni amalga oshirishning metodik asoslari.....	1326
Nazarova Shahnoza Shokirovna	
Kichik yoshdagi o'quvchilarda universal ta'limiy faoliyatlarni shakllantirish nazariyasi.....	1330
Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
ART pedagogikaning tarixi va kelib chiqishi	1335
M. K. Abulova	
Dasturiy-didaktik ta'minot asosida talabalarining kiberpedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	1338
Bekchonova Shoira Bazarbayevna	
Bo'lajak pedagoglarning fasilitatsion kompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish mexanizmi	1342
Eshmatova Go'zaloy Ziyoyidin qizi	
Mashqalali o'qitiladigan qaraqalpaq adabiyati saba'ida qollanilgan abzalliklari	1346
Jaksimova Urziya Jumabaevna	
Forming Primary-School Teachers' Creative Pedagogical Culture Through Professional Reflection.....	1349
Komiljonova Dilyoraxon	
Professional ta'limda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari (fizika ta'limi misolida).....	1352
Kosimova Yanglish Baxtiyorovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ertak terapiyasidan foydalanish	1355
Mamataliyeva Mahbuba Abduvoris qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalarni ijtimoiy moslashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari	1358
Nazarova Zarrina Allaberdiyevna	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari asosida pedagogik loyihalashtirish	1361
Polvonova Yulduzxon Saparboyevna	
SMART texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy mahoratini shakllantirish modeli	1364
Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna	
Talabalarda emotsional intellektni boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullari.....	1368
Rustamova Barno Abduxalilovna	



Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga chet tili o'qitish jarayonida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususiyatlari.....	1371
Sadirova Dinara Sadikovna	
The Effectiveness of Project-Based Collaborative Learning in Improving English Speaking Skills of High School Students.....	1378
Salikhova N. I., Izzetullah Zeki	
Jadidlarning pedagogik merosi va zamonaviy ta'limda akmeologik yondashuv integratsiyasi.....	1383
Shodiyeva Nasiba Rustamovna	
Serebral falajli bolalar uchun xavfsiz muhit yaratish.....	1387
Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna	
Diplomatik hujjatlar bilan ishlashning pedagogik modeli	1391
Sobirova Shahlo Jamolovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	1394
Suyarov Adham Begmuradovich	
Globalization and The Changing Role of English Teachers in Non-Native Contexts	1399
Toirova Shohida Kamolovna	
The Role of the Literary Heritage of the Timurid Era in Shaping National Identity and Spiritual Values	1402
Tokhliyeva Shafolat Rustam kizi	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning mavjud ilmiy-nazariy tavsiflari	1405
Toshboyeva Saida	
Talabalarning mustaqil ish loyihasini ishlash jarayonidagi ruhiy holatlari	1408
Uzaqbaeva Venera Abatbaevna, Kubeysinova Nilufar Maxmutovna	
O'qituvchilarda mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni va mexanizmlari	1412
Xursanova Zilola Mirzaxolmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish: metod va yondashuvlar	1416
Ziyayev Adxamjon	
Developing Students' Speech Skills Based on Multimodal Approach in English Teaching	1419
Bultakova Mokhinur Shuhratboy qizi	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali yo'llari	1422
G. M. Adizova	
A Comparative Study of Linguistic and Cultural Expression in Uzbek and English Literary Discourse.....	1426
Ismoilova Shakhnoza Ilkhomovna	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1429
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik mahoratni egallash jarayonini takomillashtirish.....	1433
Jabborova Marifat Qodiraliyevna	
Umumta'lim maktablarida ijtimoiy sheriklik asosida ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlari	1436
Kumush Xamrakulova	
Ekologik bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning tarixiy asoslarini o'rganishda xorijiy tajribalar.....	1440
Mirxamidova Maftunaxon Xusanboy qizi	
O'yin nomlarining lingvomadaniy ahamiyati	1444
Matmusayeva Muhayyo Azamovna	
Umumta'lim maktablarida elektroliz jarayonini o'qitish metodikasi.....	1446
O'rinova Ozodaxon O'ljayevna, Toshtemirov Asadbek	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni	1450
Oygul Ashurova Anvarjonovna	
Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar majburiyat yuklatilgan shaxslar emas.....	1453
Mo'minov Sulton Akbar o'g'li, Toshmurodova Muxabbat Nazaraliyevna	
Nogironligi bo'lgan o'smir bolalarni ota-onalari bilan hamkorlikda ijtimoiy hayotga moslashtirish samaradorligini oshirish.....	1460
Salixova Gulnoza Maxmudovna	
Talabalarning o'quv faoliyatini o'yinli texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy asoslari	1463
Umarov Nurbek Irkinovich	
Maxsus maktablarda eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini interfaol metodlar orqali rivojlantirish	1466
Teshaboyeva Feruza Raximovna	

Media to'garaklarini gospital ta'limda tashkil etishga oid xorijiy tajribalar tahlili.....	1469
Abduraximova Nozimaxon Baxadirovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi.....	1475
Abduraxmonova Noila Nasim qizi	
Raqamli transformatsiyaning mohiyati, xususiyatlari va sotsiomadaniy jarayonlarga ta'siri.....	1479
Bakirov Otabek Bo'ranovich	
Ingliz tilini o'qitishda mediatexnologiya vositalarini tadbiq qilishning optimal shakl va usullari.....	1484
Eshboyev Shoirazamatovna	
Singapur, Angliya, Rossiya va O'zbekiston o'quv dasturlarida o'qish savodxonligi yondashuvlari	1488
Eshonkulova Hilola Rajab qizi	
O'quv mashg'ulotlarini tarbiyaviy funksiyalarini amalga oshirishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	1492
Fayziyeva Maftuna Ilxomovna	
Badiiy asarlarni o'rganish jarayonida bolalarni bilish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	1496
Jaloldinova Madinaxon Xojakanovna	
Oliy harbiy ta'lim tizimida kursantlarning psixologik moslashuvi va shaxsiy shakllanishining psixologik omillari.....	1499
Kushbayev Sardor Kenjabayevich	
Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning so'zlashuv nutqini rivojlantirishning samarali usullari	1502
Lola Ibragimova	
Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish modeli	1506
Muqimova Zulxumor Ziyatoliyevna	
4K modeli asosida darslarni tashkil etish.....	1511
Nazarova Mavluda Uktamovna	
Ota-onalarning bolalar tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirishda pedagogik targ'ibotning o'рни.....	1514
Ochilova Dilrabo Ibragimovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning kombinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish ..	1517
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Muhandislik ta'limida texnologik tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	1520
Turayeva Nargiza Nasrullayevna	
Logistik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari fanini o'qitishda zamonaviy metodlarning o'рни va ahamiyati.....	1524
Ulug'murodova Nargiza Norovna	
Experimental Justification and Evaluation of the Effectiveness of a Gymnastics Exercise Complex Based on a Differential Approach In The Prevention of Metabolic Syndrome and Overweight In Women of Reproductive Age.....	1528
Urazova Muborak Yuldosheva	
PIRLS xalqaro tadqiqotida o'qituvchi omilining o'quvchilar natijasiga ta'siri.....	1532
Usmonova Yulduz Abdusaid qizi	
Когнитивные стили обучающихся как ключевой нейропсихологический компонент	1537
Эгамбердиева Фарида Октамовна	
Markaziy Osiyoda dizaynning rivojlanish istiqbollari.....	1540
Abdijalilov Abdivohid Abdihalimovich	
Bo'lajak oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyalarini shakllantirishda didaktik imkoniyatlar	1544
Yusupova Shaxnoza Qodirjonovna, Abduvahobova Nozima Rahmanovna	
Oliy ta'lim sifatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri	1549
Alimova Mavluda Shuxratbekovna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish metodikasi (filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi misolida)	1553
Axadova Shaxnoza Odiljonovna	
Algorithmic Filtering and Social Polarization	1556
Azizova Shodiya Utkur kizi	
Malaka oshirish jarayonida pedagoglarning huquqiy madaniyatni rivojlantirish metodlari	1560
Boymirzayeva Raximaxon Xoshimjonovna	



Globalashuv sharoitida oilaning an'anaviy qadriyatlari va zamonaviy tendensiyalari nisbati	1565
Ergashova Guljahon Akmal qizi	
Turli yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda (5–6 va 6–7 yosh) kognitiv rivojlanishni tashkil etishda o'yin turlarini tanlashning pedagogik asoslari	1569
Fozilova Odina Nabiyeвна	
Tibbiy ta'lim talabalarining amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning nazariy asoslari.....	1572
Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna, Isakov Qobiljon Komiljon o'g'li	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1576
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
"Temurbeklar maktabi" o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirishning samaradorlik darajasi.....	1580
Jumayev Javlonbek Abduqahhor o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini qo'shiqlar orqali shakllantirishning psixolingvistik masalalari.....	1585
Karimova Dilyora Raximjon qizi	
Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni pedagogik loyihalashtirishda reflektiv yondashuvi turlari	1589
Nurmanov Alisher Shaymardonovich	
Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar vositasida kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillastirish.....	1591
Sh. A. Abdullayev	
Tibbiy ta'limda talabalar kognitiv tafakkurini rivojlantirish texnologiyalarining nazariy-metodik asoslari.....	1594
Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Supichakov Xondamir Xamidovich, Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna, Isakov Qobiljon Komiljon o'g'li	
O'quvchilarda ingliz tilidagi lingvistik kompetensiyani shakllantirishda tizimli yondashuvning roli.....	1598
Tojiyeva Anora Baxtiyorovna	
Inklyuziv ta'lim tushunchasi va rivojlanish bosqichlari	1602
Toshboltayeva Malohatoy Valijon qizi	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	1605
Turobova Nilufar Umedullayevna	
Bo'lajak pedagoglarda fasilitatorlik sifatlarini rivojlantirishning samaradorligi.....	1610
Xamidova Sabrina Abduvahob qizi	
Tibbiy ta'limda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1615
Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini o'stirishda kompyuter o'yinlarining o'rni	1620
Yalgasheva Zilola Haziratkul qizi	
O'quvchilarda kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish	1624
Yuvashov Sherzod Ulmasovich	
Формирование лингвокультурной компетенции студентов-филологов в процессе изучения русского языка как неродного	1628
Имомалиев Шукурулло Шухратович	
"Time Management" tushunchasi va oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv yutuqlari o'rtasidagi bog'liqlik	1631
Sirojova Nafisa Isomiddin qizi	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish: mazmuni va turlari ..	1635
Yusupova Shahnosa Qodirjanovna, Abduvahobova Nozima Rahmonovna	
Birlamchi sogliqni saqlash tizimida oilaviy shifokorni tayyorlashda an'anaviy institutsional yondashuv (adabiyotlar sharhi).....	1639
Abduvaxobova Nozima Raxmanovna, Yusupova Shaxnoza Qodirjanovna	
Oila shifokorining tibbiy faoliyatining kommunikativ asoslarini rivojlantirish	1643
Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna, Abduvahobova Nozima Rahmonovna	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish (adabiyotlar sharhi).....	1652
Yusupova Shaxnoza Qodirjanovna, Abduvaxobova Nozima Rahmonovna	



MEDIA TO'GARAKLARINI GOSPITAL TA'LIMDA TASHKIL ETISHGA OID XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Abduraximova Nozimaxon Baxadirovna

O'zbekiston jurnalistikasi va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: So'nggi yillarda gospital ta'lim tizimi dunyo miqyosida alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Uzoq muddatli davolanish jarayonida bo'lgan bolalarning ta'limdan uzilib qolmasligi, ularning ijtimoiy faolligini saqlab qolish hamda psixologik holatini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Shulardan biri – media to'garaklarini tashkil etishdir. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, media faoliyat bilan shug'ullanish bolalarda axborot savodxonligini rivojlantiradi, o'z fikrini erkin ifoda etish ko'nikmalarini mustahkamlaydi hamda ijobiy o'quv motivatsiyasini shakllantiradi. Ushbu tadqiqotda gospital ta'lim muassasalarida media to'garaklarini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar tahlil qilinib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari gospital pedagogikasi va inklyuziv ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlarni shakllantirishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: gospital ta'lim, hospital education, gospital maktab, Mehrli maktab, media to'garaklar, mediasavodxonlik, media ta'lim, axborot texnologiyalari, uzoq muddat davolanish, inklyuziv ta'lim, gospital pedagogika, pedagogik innovatsiyalar.

Abstract: In recent years, the system of hospital education has gained increasing attention worldwide. To ensure that children undergoing long-term medical treatment remain engaged in learning, maintain their social activity, and receive psychological support, various pedagogical approaches have been developed. One of the most effective approaches is the organization of media clubs. International experience shows that participation in media activities helps children develop information literacy, strengthen self-expression skills, and foster positive motivation for learning. This study analyzes foreign practices in organizing media clubs within hospital education institutions and explores the possibilities of adapting these experiences to the context of Uzbekistan. The findings provide theoretical and practical implications for implementing innovative approaches in hospital pedagogy and inclusive education.

Key words: hospital education, hospital school, Mehrli maktab, media clubs, media literacy, media education, information technologies, long-term treatment, inclusive education, hospital pedagogy, pedagogical innovations.

Аннотация: В последние годы система госпитального образования стала одной из приоритетных сфер мировой педагогической практики. Для того чтобы дети, находящиеся на длительном лечении, не выпадали из образовательного процесса, сохраняли социальную активность и психологическое равновесие, разрабатываются различные педагогические подходы. Одним из наиболее эффективных направлений является организация медиакружков. Зарубежный опыт показывает, что участие детей в медиадеятельности способствует развитию их информационной грамотности, укреплению навыков самовыражения и формированию позитивной учебной мотивации. В данной работе анализируется зарубежный опыт организации медиакружков в госпитальных образовательных учреждениях и рассматриваются возможности его применения в условиях Узбекистана. Полученные результаты могут быть полезны при внедрении инновационных подходов в систему госпитальной педагогики и инклюзивного образования.

Ключевые слова: госпитальное образование, госпитальная школа, "Mehrli maktab", медиакружки, медиаграмотность, медиаобразование, информационные технологии, длительное лечение, инклюзивное образование, госпитальная педагогика, инновации в педагогике.

KIRISH

XXI asr boshlarida dunyoning yetakchi davlatlarida mediata'limga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Rus pedagogik entsiklopediyasida mediata'lim (ing. media education, lot. media – vositalar) pedagogikaning "ommaviy kommunikatsiyalar (matbuot, televideniye, radio, kino, video va boshqalar) namunalarini o'rganishni targ'ib qiluvchi yo'nalish" sifatida ta'riflanadi. Mediata'limning asosiy vazifalari – yangi avlodni zamonaviy



axborot muhitida hayotga tayyorlash, turli axborotlarni idrok etish, ularni tahlil qilish, insonni media mazmunini anglashga o'rgatish, psixikaga ta'sir oqibatlarini tushunish hamda texnik vositalar yordamida og'zaki bo'lmagan muloqot shakllarini o'zlashtirishdan iboratdir. Axborot oqimining keskin tezlashuvi, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida media savodxonlik ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Mediata'lim jamiyatning har bir a'zosini, ayniqsa yosh avlodni, tanqidiy fikrlashga, media xabarlarini tahlil qilish va baholashga, hamda mustaqil media mahsulotlar yaratishga o'rgatadi. Dunyoda bu boradagi eng ilg'or tajribalar AQSh, Kanada va Buyuk Britaniyada shakllangan bo'lib, har biri o'ziga xos yondashuv va modelga ega. AQShda mediata'lim XX asrning 60–70-yillaridan boshlab rivojlana boshlagan. Dastlab bu soha ommaviy axborot vositalarining bolalar va o'smirlar ongiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan edi. Keyinchalik mediata'lim mustaqil pedagogik yo'nalish sifatida shakllandi va jamiyatning barcha sohalariga kirib bordi. Ayniqsa, gospital pedagogikaga kirib kelishi ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida katta yangilik bo'ldi, chunki u uzoq muddat davolanish jarayonida bo'lgan bolalarning ijodiy faolligini oshirish va psixologik qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynamoqda. Mediata'limning asosiy modeli sifatida AQShda ishlab chiqilgan Center for Media Literacy (CML) modeli e'tirof etiladi.

Ushbu model Elizabeth Thoman va Tessa Jolls tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, tanqidiy tahlil va faol fuqarolik tamoyillariga asoslanadi. CML modeli gospital pedagogikada ham katta natijalar bergan, chunki u o'quvchilarni nafaqat axborotni iste'mol qilish, balki uni ongli tarzda tahlil qilish va qayta yaratishga o'rgatadi. Model beshta asosiy savolga tayanadi:

1. Ushbu media xabarni kim yaratdi?
2. Xabar qanday texnikalar yordamida e'tiborni tortmoqda?
3. Ushbu xabar qanday qadriyatlar va g'oyalarni ilgari suradi?
4. Turli auditoriyalar bu xabarni qanday qabul qiladi?
5. Nimalar yashirilgan yoki e'tibordan chetda qolgan?

Ushbu savollar yordamida o'quvchilar har qanday media mahsulotni – film, reklama, yangilik yoki internet posti – chuqur tahlil qilishni o'rganadilar va eng muhimi, o'zlari shunday mahsulotlarni yaratish ko'nikmasini egallaydilar. Mediata'lim alohida fan sifatida emas, balki til, san'at, ijtimoiy fanlar va texnologiya kabi yo'nalishlarga integratsiyalashgan holda joriy etiladi. AQShda Common Sense Media, PBS LearningMedia va NAMLE (National Association for Media Literacy Education) kabi tashkilotlar tomonidan mediata'lim dasturlari ishlab chiqiladi. Ushbu dasturlar orqali yoshlar axborotni ongli, mas'uliyatli va ijodiy tarzda iste'mol qiluvchi hamda ishlab chiqaruvchi shaxs sifatida tarbiyalanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gospital ta'lim tizimida mediata'limni, xususan media to'garaklarini tashkil etish masalasi so'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda keng ilmiy-amaliy tadqiqotlarga sabab bo'lmoqda. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, mediata'lim gospital muassasalarida o'quvchilarning psixologik holatini barqarorlashtirish, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy o'zini ifoda etish hamda raqamli ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. Kanada tajribasi mediata'limni gospital ta'limga integratsiya etishda ilg'or yo'nalishlardan biri hisoblanadi. 1980-yillardan boshlab mamlakat miqyosida mediata'lim milliy o'quv dasturining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, Ontario provinsiyasida bu yo'nalishda Association for Media Literacy (AML) modeli asosida media to'garaklari faol tashkil etilmoqda. AML modeli quyidagi g'oyalarga tayanadi: media matnlari insonlar tomonidan yaratilgan konstruksiyalar bo'lib, har bir media mahsulot iqtisodiy, siyosiy va madaniy manfaatlarni ifodalaydi; media xabarlar turli auditoriyalar tomonidan turlicha qabul qilinadi; media texnologiyalar mazmunining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu yondashuv gospital ta'lim muassasalarida ham qo'llanilib, o'quvchilarda media matnlarni o'qish, tahlil qilish va mas'uliyat bilan media kontent yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Kana-dadagi MediaSmarts tashkiloti (Ottava shahrida joylashgan nodavlat notijorat markaz) raqamli va media savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlari, interaktiv platformalar va treninglarni ishlab chiqadi. Ushbu tashkilot gospital muassasalari uchun maxsus adaptiv o'quv materiallarini taklif etadi. MediaSmarts tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, media to'garaklari orqali kasal bolalarda ijtimoiy aloqadorlik hissi oshadi, ular o'z fikrini ifoda etish, muloqotga kirishish va kreativ faoliyatga jalb etilish imkoniga ega bo'ladi. Bu jarayon ularning reabilitatsiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buyuk Britaniyada mediata'limning rivojlanishida British Film Institute (BFI) va BBC Learning kabi tashkilotlarning hissasi beqiyosdir. 1980-yillardan boshlab mediata'lim madaniyat-shunoslik va kommunikatsiya nazariyalariga asoslanib, gospital ta'limda ham keng joriy etilgan. London Univer-



siteti professori David Buckingham ishlab chiqqan model bu yo'nalishda nazariy asos sifatida qabul qilingan. U mediata'limni to'rtta komponent – Til (Language), Texnologiya (Technology), Auditoriya (Audience) va Institutsiya (Institution) orqali tahlil qiladi. Ushbu komponentlar media mahsulotni yaratish va tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini, media muhitdagi axborot oqimiga ongli yondashuvini shakllantiradi. Buyuk Britaniyada "Media Studies" fani o'rta maktablar, kollejlarda va gospital maktablar dasturlariga kiritilgan bo'lib, media to'garaklari o'quvchilarning emotsional-psixologik holatini yengillashtirish, shuningdek, kreativ terapiya vositasi sifatida qo'llaniladi.

BBC Learning, Ofcom va BFI tomonidan yaratilgan dasturlar gospital maktablar o'qituvchilariga maxsus videoresurslar, interaktiv topshiriqlar, media loyihalar va xavfsiz kontent yaratish bo'yicha yo'riqnomalarni taklif etadi. Masalan, BBCning "Children's Hospital Learning Media" loyihasi uzoq muddat davolanayotgan bolalarga onlayn media loyihalarda ishtirok etish orqali o'qish motivatsiyasini saqlash imkonini beradi. AQSh, Kanada va Buyuk Britaniya tajribalari tahlili shuni ko'rsatadiki, mediata'lim, ayniqsa media to'garaklari, gospital ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi. Bu to'garaklar o'quvchilarga axborotni tahlil qilish, o'z fikrini media vositalar orqali ifodalash, hamkorlikda ishlash, manipulyativ ta'sirlarga qarshi immunitet hosil qilish va ijtimoiy o'zini anglashni shakllantirish imkonini beradi. Xorijiy tajribalar shundan dalolat beradiki, gospital muassasalarida media to'garaklarini yo'lga qo'yish faqat o'quvchi faoliyatini boyitish emas, balki ularning ruhiy reabilitatsiyasini qo'llab-quvvatlovchi pedagogik mexanizm sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois O'zbekiston ta'lim tizimida, ayniqsa gospital va inklyuziv ta'lim muassasalarida, mediata'limning xorijiy modellari (AML, BFI, CML) milliy sharoitga moslashtirib tatbiq etish, o'quvchilar uchun maxsus media to'garaklar tashkil etish dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi gospital ta'lim muassasalarida media to'garaklarini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalarni tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda sifatli (kvalitativ) tadqiqot yondashuvi asos sifatida tanlandi. Maqsad – uzoq muddat davolanishga muhtoj bemor o'quvchilar uchun yaratilgan media loyihalar, ularning pedagogik, psixologik va ijtimoiy samaralarini aniqlash hamda O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini baholashdir. Tadqiqot davomida kontent-tahlil, kuzatuv, qiyosiy tahlil va holat (case study) metodlari qo'llanildi. Gospital ta'limda media to'garaklarini tashkil etish tajribalari sifatida Buyuk Britaniyaning Radio Lollipop, AQShdagi CHOP (Children's Hospital of Philadelphia) hamda Seacrest Studios loyihalari tanlab o'rganildi. Ularning muvaffaqiyat omillari, tashkiliy tuzilmasi, interaktiv faoliyat shakllari, bolalar ishtirokini rag'batlantirish mexanizmlari va terapevtik ahamiyati tahlil qilindi. Radio Lollipop 1979-yilda Buyuk Britaniyada tashkil etilgan va hozirda dunyoning ko'plab mamlakatlarida faoliyat yurituvchi bolalar uchun mo'ljallangan ijtimoiy radio loyihasidir. Ushbu dastur uzoq muddat davolanishga muhtoj bemor bolalarning emotsional holatini yengillashtirish, ularning o'zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish va "normal hayot" tuyg'usini saqlab qolish maqsadida ishlab chiqilgan. Lollipop radiosi ko'ngillilar asosida faoliyat yuritadi, bolalarga o'z ovozlari yozish, musiqiy chiqishlar tayyorlash, maqolalar yozish, o'yinlar o'tkazish imkoniyatini beradi. Bu faoliyatlar o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi, ruhiy tiklanishga yordam beradi va ijtimoiy faollikni qo'llab-quvvatlaydi. CHOP (Children's Hospital of Philadelphia) tajribasi gospital muhitda media ta'limning eng samarali modellariidan biridir. Mazkur shifoxonada tashkil etilgan Galaxy 51 yopiq telekanali va Breakthrough Studios multimedia markazi bemor bolalarga jonli efirlarda ishtirok etish, o'z dasturlarini yaratish, interaktiv o'yinlarda qatnashish imkonini beradi. "Bemor ommaviy axborot vositalari va radioeshittirish dasturi" bolalar hayoti va ijodiy san'at terapiyasi bo'limining bir qismi bo'lib, radio, televidenie va raqamli media orqali ijodiy terapiyani amalga oshiradi.

Ushbu dasturda bemorlar nafaqat tomoshabin, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashib, shaxsiy ifoda, ijtimoiy muloqot va o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, multimedia ishlab chiqarish jarayonlarida qatnashish bolalarning o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Seacrest Studios esa Rayan Seacrest fondi tomonidan yaratilgan ichki radioeshittirish tarmog'idir. Ushbu studiyada bolalar jonli efirlar olib boradilar, musiqiy dasturlarda ishtirok etadilar, yangi texnologiyalar bilan ishlashni o'rganadilar. Haftasiga 25 soatdan ortiq jonli ko'rsatuvlar, o'yinlar, ertalabki yangiliklar, karaokelar, shuningdek "interactive patient TV" orqali bemorlar uchun maxsus kontentlar tayyorlanadi. Bu faoliyat bemor bolalar uchun nafaqat ko'ngilochar, balki psixoterapevtik ahamiyatga ham ega bo'lib, art-terapiya tamoyillarini mujassam etadi. Tadqiqot davomida ushbu xorijiy tajribalar tahlil qilinib, ularning umumiy o'xshashliklari – bolalar ishtirokini faollashtirish, media orqali kommunikativ terapiya, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda farqlari – infratuzilma, texnik baza, moliyalashtirish mexanizmlari ajratib ko'rsatildi. Shuningdek, bu modellarni O'zbekiston sharoitida qo'llash uchun zarur infratuzilma, mutaxassislar tayyorlash va media-psixologik yondashuvlarni mahalliy sharoitga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari gospital ta'limda media to'garaklari bolalarning emot-

sional holatini yaxshilash, ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirish hamda ularning ijodiy faolligini rivojlantirishda samarali vosita ekanini ko'rsatadi. Shu bois, xorijiy tajribalarga asoslangan media to'garaklarini O'zbekistonning "Mehrlri maktab" gosital ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

- Galaxy 51 – CHOPning ichki televizion tarmog'i bo'lib, butun shifoxona bo'ylab 500 dan ortiq televizor ekranlariga translyatsiya qilinadi;
- bemor o'quvchilar va ularning oilalari 55555 raqamiga qo'ng'iroq qilib Galaxy 51 bilan bevosita muloqot qilishi, efirda o'z ovozi eshitishi, studiyaga qo'shilganda esa ekranlarda o'zini ko'rishi mumkin;
- media mobil aravachalari yuqori qavatlardagi bemorlarga palatalaridan chiqmasdan virtual haqiqat yoki turli shoular orqali o'yinlar o'ynash, interaktiv dasturlar va ta'limiy kontentlarda ishtirok etish imkonini beradi;
- studiyada DJ'lik uskunolari mavjudligi bois bolalar o'z qo'shiqlarini yozib, kuylab ijro etishlari mumkin;
- vaqti-vaqti bilan "kino kechalari" tashkil etilib, eng so'nggi filmlar namoyish qilinadi hamda bolalar ovoz yozish orqali dublyaj san'atini sinab ko'rishadi;
- CHOPdagi eng sevimli tadbirlardan biri – "CHOP Idol" iste'dodlar shousi bo'lib, bemor bolalar qisqa videolar tayyorlab, namoyish kuni jonli ijro etishadi;
- mazkur tashabbuslar ambulator va statsionar bo'lgan bolalar hamda ularning oilalariga davolanish jarayonida bevosita foyda keltiradi va kasalxona tajribasini odatiy, qiziqarli hamda ma'naviy yengilroq kechirishga xizmat qiladi;

eng yaxshi jihatlardan biri – bolalar va ularning bilan ishlayotgan pedagoglar o'rtasidagi ijobiy ta'sir:

- bola studiyaga kirgan zahoti "faqat bemor" emas, balki o'quvchi va ijodkor sifatida qabul qilinadi;
- "bemor bolalar media dasturlari" ko'plab bolalar uchun qiziqarli ijodiy ishlar, unutilmas voqealar, kreativ g'oyalarni amalga oshirish va hech bo'lmaganda hayotidagi ma'lum narsalarni nazorat qilish tuyg'usini beradi;
- bunday tajribalar oilalarning eng og'ir damlarini yengillatadi, pedagoglar esa bolalar hayotining bir qismiga aylanib, oilalarga kuchli hissiyotlarni boshqarishda ko'maklashadi;
- media jamoalari bolalar hech qachon unutmeydigan xotiralar yaratadi va bu og'ir pallada nihoyatda muhimdir;
- "Galaxy 51"ning asosiy maqsadi bolalarning ruhiy holatini yaxshilash, zerikish va yolg'izlik hissini kamaytirish uchun quvnoq va foydali dasturlarni taqdim etish, bolalarni faqat tomoshabin emas balki ijodkor sifatida jarayonga jalb qilib, ko'rsatuvlar yaratish, intervyu olish, animatsiya va hikoyalar tayyorlash orqali ularning ijodkorligi va faol ishtirokini rivojlantirish, shuningdek media savodxonlikni kuchaytirib, mediatexnologiyalar yordamida fikrni ifodalash, axborot bilan ishlash va jamoaviy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishdir;
- tashabbuslar terapevtik jihatdan bolalarga o'zini namoyon qilish imkonini yaratadi va sog'liqni saqlash tajribasi bilan kurashishni qo'llab-quvvatlaydi, bu ishlarda shifokor va hamshiralar bilan hamkorlik asosiy mezondir;
- Galaxy 51 faqat CHOP ichida yopiq efir orqali namoyish qilinadi, ko'rsatuvlarni bolalar, o'qituvchilar va volontyorlar birgalikda tayyorlaydi;
- ta'limiy jihatdan uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalarga kasalxona muhitida ta'lim-tarbiya va qo'llab-quvvatlovchi xizmatlarni pedagog va psixologlar bilan moslashtirilgan holda beradi;
- interaktiv jihatdan palatadan chiqqan olmaydigan bolalar ham Zoom va boshqa texnologiyalar orqali darslar hamda o'yinlar, viktorinalar, intervyular, animatsiyalar va motivatsion hikoyalarda ishtirok etadi;
- ko'ngilochar bloklar doirasida art-terapiya, robototexnika, IT-loyihalar va media to'garaklari taklif etiladi, studiyada jonli musiqiy videolar yozib ommaga taqdim etish imkoniyati yaratiladi;
- shu bilan birga, infeksiyani nazorat qilish siyosati doirasida sanitariya talablari qat'iy bajarilib, bemorlar va mehmonlarning studiyaga kirishi ehtiyot choralariga muvofiq cheklanadi;



- gospital maktab pedagoglari va media dasturlari jamoasi Child Life xodimlari bilan birga bemorlar va oilalarni aniqlash, ularga professional multimedia xizmatlarini taqdim etish, terapevtik ifoda va distraksiya vositalarini yo'lga qo'yish, bolalarning izolyatsiya sharoitida kasallikni yengishiga ko'mak berish uchun video, audio, fotografiya, original va adaptiv shoular, qisqa metrajli va hujjatli filmlar kabi formatlardan foydalanadi;
- Galaxy 51 gospital ta'limdagi eng muvaffaqiyatli media loyihalaridan biri sifatida bolalarning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi, ta'lim jarayonini qiziqarli va mazmunli davom ettirishga yordam beradi hamda shifoxonadagi ijtimoiy muhitni jonlantiradi, shu sababli model boshqa kasalxonalarda ham o'rganilmoqda;
- Seacrest Studios – Ryan Seacrest Foundation tomonidan tashkil etilgan media markazlar tarmog'i bo'lib, kasalxonadagi bolalarni radio, televideniye va yangi media orqali ijodiy faoliyatga jalb etadi, ruhiy holatini yaxshilaydi va ta'limiy hamda ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi;
- dastlab Atlanta shifoxonasida yo'lga qo'yilgan loyiha 2010-yillardan buyon AQSh bo'ylab kengaydi, 2020-2024 yillarda yangi studiyalar ishga tushdi;
- markazlar professional mikrofonlar, videokameralar, yashil fon, audio-mikser va broadcasting uskunalari bilan jihozlangan bo'lib, bolalarga jonli efir, video yaratish, intervyu va ovoz yozish imkonini beradi;
- dasturlar 55-kanal orqali yopiq tarmoqqa uzatiladi, bemorlar xonalaridan telefon orqali qo'shiqlar va boshlovchilarni so'rashi mumkin;
- radio-shoular, televizion segmentlar, viktorinalar, green-screen loyihalari va media savodxonlik mashg'ulotlari o'quv dasturlari bilan integratsiyalashib, til-nutq va axborot ko'nikmalarini mustahkamlaydi;
- Texas Children's Hospital "Kids' Own Studio" va "ZTV" platformalari bilan bolani "faqat bemor" emas, balki ijodiy sub'yekt sifatida qo'llab-quvvatlab, studiya va kanal orqali ta'limiy-ijodiy kontent yetkazadi, West Tower 16-qavatdagi studiya TV, radio va musiqa bloklarini, hamda mobil ilovalar orqali masofadan ulanish, interaktiv o'yinlar va musiqiy pleylistlarni o'z ichiga oladi;
- Connecticut Children's "Kids Connect TV (KCTV) Studio" yopiq kanal va studio sifatida "for kids, by kids" tamoyiliga tayanib, tomoshabindan tashqari kontent muallifligini ham bolalarga beradi, kundalik yangiliklar, BINGO, o'yinlar, tibbiy o'yinlar, musiqiy chiqishlar, maxsus mehmonlar va virtual sayohatlar kabi efirlar orqali ta'lim, o'zini ifoda etish va sotsializatsiyani kuchaytiradi;
- Starlight Children's Foundation esa "Healing Begins with Happiness™" shiori bilan gaming, VR va media dasturlari orqali stress va izolyatsiyani kamaytiradi, Starlight Gaming Station va mobil qurilmalar bemorlarning nazorat tuyg'usini oshiradi, VR esa muolajalar paytida distraksiyani ta'minlab, og'riq va bezovtalikni pasaytirishi mumkin, shu bilan birga mazkur kontent biologiya va geografiya kabi fanlar bilan birlashtirilib ta'limiy qiymat ham yaratadi;

Ushbu tajribalar O'zbekiston gospital maktablari uchun bosqichma-bosqich yo'l xaritasini talab etadi:

- *birinchidan maqsad va reja* – radio-shoular, darslik videolari va "mini-TV" dasturlari orqali ta'limiy, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish;
- *ikkinchidan infratuzilma* – minimal darajada mikrofon, mikser, video tahrir uchun kompyuter va kamera/telefon, kengaytirilgan darajada studiya mikrofonlari, professional kamera va green-screen;
- *uchinchidan kadrlar va hamkorlar* – media-koordinator, volontyorlar, texnik yordam, hamda mahalliy radio, media fakultetlari va NNTlar bilan hamkorlik; to'rtinchidan mazmun – bolalar radiostudiyasi, "mini-TV/YouTube" darslik va o'yin-shoulari, podcast va intervyular;
- *beshinchidan xavfsizlik va axborot himoyasi* – ota-ona roziligi, tibbiy muvofiqlashtirish va sog'liqqa ta'sirni baholash;
- *oltinchidan baholash va barqarorlik* – oylik monitoring, ishtirok va ruhiy holat o'zgarishlarini o'lchash, pedagog va shifokor fikrlarini yig'ish.

Amaliy jihatdan kichik va arzon pilot bosqichini yo'lga qo'yish, oliygohlar bilan stajyorlik va volontyorlikni yo'lga qo'yish, ko'ngillilar uchun tibbiy-pedagogik treninglar o'tkazish va media siyosatini aniq hujjatlashtirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan yoki og'ir kasallikka chalingan bolalar ijodiy faoliyatda, xususan media to'garaklari va ijodiy loyihalarda ishtirok etganda, ularning ruhiy-emotsional holati sezilarli darajada yaxshilanadi. Bunday mashg'ulotlar jarayonida bezovtalik kamayadi, o'zini yakka his etish holati bartaraf etiladi, ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi hamda bolalarda o'z-o'zini ifoda etish va o'z shaxsiy qadriyatlarini anglash imkoniyati ortadi. Shifoxona muhitida "yulduz bo'lish", "ijodiy loyiha yaratuvchisi" sifatida ishtirok etish bolalar va ularning oilalari uchun ijobiy motivatsiya manbai bo'lib xizmat qiladi, bu esa davolanish jarayonini yanada oson, samarali va ma'noli kechishiga yordam beradi. Shu bilan birga, gospital ta'lim muassasalarida media to'garaklari nafaqat o'quvchilarga, balki pedagog xodimlarga ham ruhiy yengillik va kasbiy ko'tarinkilik bag'ishlaydi, ularning kasbiy charchoqni yengishiga yordam beradi.

O'zbekistonda ham uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar uchun shifoxonalar huzurida mediata'lim elementlariga asoslangan ijodiy studiyalar va media to'garaklarini yo'lga qo'yish zarur. Bunday tashabbuslar bolalarning nafaqat sog'ayish jarayoniga, balki kasallikdan keyingi ijtimoiy hayotga moslashuviga, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu kabi dasturlar gospital pedagogikasini zamonaviy raqamli ta'lim yondashuvlari bilan boyitib, O'zbekiston ta'lim tizimida insonparvarlik, inkluzivlik va innovatsionlik tamoyillarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Blum, N. J., & Fee, R. J. (2019). Hospital-based education programs: Supporting learning during medical treatment. *Journal of Pediatric Rehabilitation Medicine*, 12(3), 211–223.
2. Martinez, M., & Cook, L. (2020). Media literacy and hospital education: Therapeutic and pedagogical intersections. *International Journal of Education and Health*, 8(4), 45–58.
3. Boland, L., & Mullaney, J. (2021). Hospital schools and creative media interventions for children with chronic illness. *British Journal of Special Education*, 48(2), 187–200.
4. Clark, A., & Statham, J. (2020). *Children and Young People in Hospital: Creative Pedagogies for Wellbeing*. London: Routledge.
5. Starlight Children's Foundation. (2024). *Play, Media & VR Programs for Hospitalized Children: Evaluation Summary*. Los Angeles, CA.
6. Texas Children's Hospital. (2022). *Kids' Own Studio and ZTV: Building Resilience through Media*. Houston, TX.
7. Connecticut Children's Hospital. (2021). *Kids Connect TV: Educational Media in Pediatric Care*. Hartford, CT.
8. Children's Hospital of Philadelphia (CHOP). (2023). *Galaxy 51: Patient Engagement Through Media Innovation*. Philadelphia, PA.
9. World Health Organization (WHO). (2020). *Promoting the psychosocial well-being of children in hospital settings*. Geneva: WHO Press.
10. UNESCO. (2022). *Media and Information Literacy in Inclusive Education*. Paris: UNESCO Publishing.
11. Seacrest Studios Official Website – <https://www.ryanseacrestfoundation.org>
12. Starlight Children's Foundation – <https://www.starlight.org>
13. Texas Children's Hospital ZTV Media Studio – <https://www.texaschildrens.org/ztv>
14. Connecticut Children's KidsConnect TV – <https://www.connecticutchildrens.org>
15. Galaxy 51 Studio, CHOP – <https://www.chop.edu/galaxy51>
16. UNESCO Media Literacy Resources – <https://www.unesco.org/en/media-information-literacy>
17. Abdullayeva, S. (2021). Mediata'limning zamonaviy modellari va ularni maktab ta'limida qo'llash imkoniyatlari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
18. Raxmatullaeva, N. (2023). Bolalar media savodxonligini shakllantirishda interfaol usullar. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 4(3), 72–85.
19. Karimova, M. (2020). Gospital ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash tajribalari. Ilm va jamiyat jurnali, 7(2), 48–53.
20. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2024). Inkluziv va gospital ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.